



HUDUDLAR SOLIQ SALOHIYATINI OSHIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Sharipov Narzullo G'ulomovich,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasining katta
o'qituvchisi, E-mail: gavhar9369@gmail.com

ORCID: 0009-0008-3875-3821

EFFECTIVE ORGANIZATION OF TAX ADMINISTRATION IN INCREASING THE TAX AUTHORITY OF THE REGIONS

Sharipov Narzullo Gulomovich,

Senior lecturer of the "Economic Theory" department of the Tashkent State University of
Economics, E-mail: gavhar9369@gmail.com

ORCID: 0009-0008-3875-3821

JELClassification: H2, R5

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq ma'murchilagini samarali tashkil etish haqida so'z yuritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ilg'or tajribalarning asosiy jihatlarini aniqlash va ulardan O'zbekiston soliq ma'muriyatichilida foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq ma'murchiligi juda muhim rol o'ynaydi. Samarali soliq ma'muriyatichiligining muhimligiga qaramasdan, ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham unga erishishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjud. Bu muammolarni hal qilishda soliq ma'muriyatichilagini samarali tashkil etish bo'yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rghanish O'zbekiston uchun nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda samarali soliq ma'muriyatichilagini ta'minlash uchun qo'llaniladigan usul va mexanizmlarni tushunish mamlakatda soliq tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash imkonini beradi. Umuman olganda, tadqiqot ishi O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida uni qo'llash imkoniyatlarini maqsadida soliq

ma'muriyatichilagini samarali tashkil etish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rghanishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlar va turli mamlakatlarda soliq ma'muriyatichiligi amaliyotining qiyosiy tahlilini o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarni tahlil qilish, toplash va sharhlash usullari, shuningdek, ekspert baholashlari va soha mutaxassislarining so'rovlari qo'llaniladi. O'rghanishlar natijasida soliq ma'muriyatichilagini samarali tashkil etishning asosiy tamoyillari va yondashuvlari belgilab olindi, shuningdek, ularni O'zbekiston soliq tizimi amaliyotiga joriy etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar va tavsiyalar belgilandi. Ilg'or tajribalarni joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston soliq organlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatda soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Abstract: This article will talk about the effective organization of tax administration in increasing the tax potential of the territories. The main purpose of the study is to identify the main aspects of advanced experiments and develop

recommendations for their use in the tax administration of Uzbekistan. Tax administration plays a very important role in increasing the tax potential of the regions. Despite the importance of effective tax administration, there are a number of problems that prevent it from being achieved in many countries, including Uzbekistan. The study of the advanced experience of developed foreign countries in the effective organization of tax administration in solving these problems remains extremely relevant for Uzbekistan. Understanding the methods and mechanisms used to ensure effective tax administration in developed countries makes it possible to determine the possibilities of improving the tax system in the country and improving its effectiveness. In general, the research work is aimed at studying the advanced experience of developed foreign countries in the effective organization of tax administration in order to determine the possibilities of its application in the conditions of the economy of Uzbekistan.

The research methodology includes an analysis of scientific literature, statistics and a comparative analysis of the practice of tax administration in different countries. Methods of data analysis, collection and interpretation are used, as well as expert assessments and surveys of experts in the field. As a result of the studies, the basic principles and approaches to the effective organization of tax administration were determined, as well as specific measures and recommendations for their introduction into the practice of the tax system of Uzbekistan. The obstacles that may arise in the introduction of advanced experiments and ways to overcome them are discussed. The results of the study are of practical importance for the tax authorities of Uzbekistan and can serve as the basis for the development of strategies for improving tax administration in the country.

Kalit so‘zlar: Soliq, hududlar, soliq salohiyati, soliq ma’muriyatichiligi, soliq stavkasi, soliq tizimi, soliq siyosati, soliq qo‘mitasi, soliq hamkorligi.

Keywords: Tax, regions, tax potential, tax administration, tax rate, tax system, tax policy, tax committee, tax cooperation.

Kirish. Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq ma’murchiligi juda muhim rol o‘ynaydi. Samarali soliq ma’muriyatichiligi davlat dasturlari va ijtimoiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan soliq tushumlarini yig‘ishni ta’minlash orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Globallashuv va kapital harakatchanligini oshirish sharoitida investitsiyalarni jalb qilish, raqobatbardoshlikni saqlash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun samarali soliq ma’muriyati ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon bankining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, soliq ma’muriyatining yuqori samaradorligi iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq. Rivojlangan mamlakatlarda soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o‘rtacha 35-40% ni tashkil qiladi, ma’muriy samaradorlik darajasi past bo‘lgan mamlakatlarda esa bu ulush sezilarli darajada past – taxminan 15-20%. Bu shuni ko‘rsatadiki, samarali soliq ma’muriyatichiligi soliq tushumlarini ko‘paytirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy dasturlar, ta’lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilmani moliyalashtirishni ta’minlaydi.

Ma’lumki, har qanday davlat o‘z faoliyatini samarali yurutish, xafsizligini ta’minlash va umuman mavjudlik shartlarini bajarishi uchun mablag‘larga muhtoj. Davlatlarning bu ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy manba bu albatta soliqlardir. Butun soliq tizimi samarali bo‘lishi va mamlakatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan o‘z vaqtida o‘zgarishi muhim ahamiyatga ega.

Soliq tizimi samarali bo‘lishi uchun esa uni boshqarish kerak. Davlat darajasida sodir bo‘ladigan bu boshqaruv soliq ma’muriyatidir.

Samarali soliq ma’muriyatichiligining muhimligiga qaramasdan, ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham unga erishishga to‘sinqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjud. Bu muammolardan biri soliq tizimidagi resurslardan yuqori darajada samarasiz foydalanish, bu esa byudjetlarning rentabelsiz bo‘lishiga va davlat dasturlarining yetarlicha moliyalashtirilmashligiga olib keladi. O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2023-yil yakunlari bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash ulushi 25 foizni tashkil etgani budjet daromadlari va mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Material va metod. Tadqiqotni amalga oshirishimizda tadqiqot natijalarimizdan ko‘zlagan samarani olishimiz uchun, albatta, tadqiqot mavzusi doirasida yetarlicha sifat va miqdoriy ma’lumotlar to‘plashimiz kerak bo‘ldi. Bu sifat va miqdoriy ma’lumotlarni birlamchi va ikkilamchi manbalardan to‘pladik. Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq ma’murchilagini samarali tashkil haqida yurtimiz va chet el olim, tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan adabiyotlarning elektron, xamda bosma nashrlarini to‘plash tadqiqot mavzumizni nazariy jihatlarini yoritib berish uchun kerak bo‘ldi.

Ta’rif bo‘yicha birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish – bu manbada to‘plangan xom ma’lumotlarni yig‘ish hisoblanadi. Bu ma’lum bir tadqiqot maqsadi uchun tadqiqotchi tomonidan to‘plangan asl ma’lumotlarni to‘plash jarayoni. Keyinchalik uni ikki segmentga tahlil qilish mumkin:

Sifatli tadqiqot usuli. Ma’lumotlarni yig‘ishning sifatli tadqiqot usullari raqamlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlarni to‘plashni yoki matematik hisoblash orqali chiqarish zarurligini o‘z ichiga olmaydi, aksincha u tadqiqotchining hissi yoki hissiyotlari kabi miqdoriy bo‘lmagan elementlarga asoslanadi. Bunday usulning misoli ochiq anketadir.

Miqdoriy Usul. Miqdoriy usullar raqamlarda keltirilgan va xulosa chiqarish uchun matematik hisoblashni talab qiladi. Matematik hisoblash uchun raqamlarga kelish uchun yaqin savollar bilan so‘rovnoma dan foydalanish misol bo‘lishi mumkin. Shuningdek, korrelyatsiya va regressiya usullarini misol qilish mumkin.

Natijalar. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilish, hozirda kun tartibidagi asosiy vazifalardan biri sifatida turibdi. Xossatan Prezident Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Hozirgi paytda soliq siyosatini amalga oshirishda keskin chora-tadbirlardan voz kechishni, davlat tizmining uzlusiz faoliyat yuritishi uchun byudjet daromadlari barqarorligini ta’minalash, yirik investitsiya loyihamonini iqtisodiyotimizga kiritmoqchi bo‘layotgan investorlar uchun qulay soliq tizimini yaratish, barcha biznes toifalari uchun soliqqa tortishni soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish, shu asosda ishlab chiqarishni, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish hamda kichik korxonalar ham qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashga o‘tishini rag‘batlantirish zarur” deya ta’kidlagan edilar [4].


Soliq tizimini isloh qilish uni har tomonlama rivojlantirish borasida davlatimiz raxbari bir qancha qarorlar imzoladilar. Bunda asosiy g‘oya tenglik, soddalik, aniqlik va samaradorlik prinsiplariga asoslangan yangi soliq tizimini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ma’lumki bugugnigi kunda mamlakatimiz har tomonlama

rivojlangan, katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan demokratik davlatga aylanib bormoqda. Bu borada davlat raxbari tomonidan ilgari surilayotgangan ilg‘or g‘oya va tashabbuslar asosida mamlakatimizda soliq sohasida ham mutlaqo yangi bo‘lganadolatli, shaffof va izchil hamda hamkorlik tamoyillariga amal qiladigan samarali tizim yaratildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar zimmasidagi soliqlar yukini kamaytirib, fuqarolar daromadini oshirish, pirovardida ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiyotning barqarorligini ta’minlash hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga izchil soliq ma’muriyatichilagini joriy etish orqali erishilmoqda.

Ijobiy o‘zgarishlar natijasi o‘laroq erishilgan natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, Soliq organlari tomonidan yig‘ilgan yillik tushumlar 2021-yilda 127,9 trln. so‘mga yetgan edi. Bu natijani o‘tgan, 2020 yil bilan solishtiradigan bo‘lsak bu ikki yilda yig‘ilgan

tushumlar farqi 24,3 trln. so‘m ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu natija 2022-yilda soliq tushumlarining umumiy qiymati bo‘yicha 23.5 foizga oshganligini anglatadi. Yana bir asosiy ko‘rsatgich yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha tushumlar hisobini tahlil qiladigan bo‘lsak 2021-yilda bu ko‘rsatgich 82,3 trln. so‘mni tashkil etib, 14,6 trln. so‘mlik o‘sishga erishilgan. Bojxona organlari ma’muriyatichiligidagi tushumlar esa 2021-yillik hisobga ko‘ra 33.2 trln. So‘mga yetgan va 2020-yildagi tushumlarga nisbatan 34.5 foizga ortganligini ko‘rishimiz mumkin [5].

Yana bir ijobiy o‘zgarish sifatida 2022-yilgi erishilgan natijalarini tahlil qilishimiz mumkin. Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, respublika bo‘yicha 2022-yilda soliq organlari tomonidan 148,4 trln so‘m tushumlar ta’minlangan. Bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan (20,4 trln so‘m) 16% ko‘pni tashkil qilgan (1-rasm) [6]:



1-rasm. Soliq organlarining 2022-yilgi budjet tushumlari [6]

Yuqorida keltirilgan rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki soliq tushumlarining barcha turlari bo‘yicha 2022-

yilga natijalar ijobiy tomonga o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, soliq turlari kesimida:

- mol-mulk solig‘idan 4 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,6 trln so‘mga yoki 63%;
- yer solig‘idan 5,3 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,2 trln so‘mga yoki 30%,
- aylanmadan olinadigan soliqdan 2,5 trln so‘m undirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 863 mlrd so‘mga yoki 52%;
- QQSdan 32,8 trln so‘m undirilib, 2021-yilga nisbatan 7,2 trln so‘mga yoki 28%;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan 24,3 trln so‘m undirilib,

2021-yilga nisbatan 5,4 trln so‘mga yoki 28% o‘sishga erishildi.


Ma’lumki, tadbirkorlik muhitini yaratish aholi bandligini ta’minalash va turmush sharoitini yaxshilash bevosita amalga oshirilayotgan ijobiy soliq islohotlariga bog‘liq bo‘ladi. Soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida 2022-yilda mamlakatimiz hududida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslar soni 8.1 foizga o‘sishga erishildi (2-rasm) [7]:



2-rasm. 2022-yil davomida yuridik shaxslar soni dinamikasi [7]

Rasm ma’lumotlarini tahlil qilar ekanmiz ko‘rishimiz mumkinki, yuridik shaxslar soni sohalar kesimida ham hududlar kesimida ham o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Hududlar kesimida yuridik shaxslar o‘sishi dinamikasini tahlil qilsak, Xorazm viloyati 11.6 foizlik o‘sish dinamikasi bilan yetakchilik qilmoqda. Hududiy kesimdagি eng kichik o‘sish dinamikasi esa 5 foizlik o‘sish bilan Buxoro viloyatiga to‘g‘ri kelgan.

Yuridik shaxslarning ko‘payishi nafaqat hududiy kesimda balki, sohalar kesimida ham ijobiy o‘zgarishlarga uchragan. Rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, sohalar kesimida eng katta o‘sish axborot va aloqa sohasida bo‘lib 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 17.5 foizga ortib sohalar kesimida yetakchilikka erishgan. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohalari 5.3 foizlik o‘sish sur’ati bilan eng past natijaga erishgan.



3-rasm. 2022-yil, yanvar-dekabr holatiga ko'ra yakka tartibdagagi tadbirkorlar soni dinamikasi [7]

Sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi o'laroq so'nggi yillarda mamlakatimiz hududida nafaqat yuridik

shaxslar soni, balki yakka tartibdagagi tadbirkorlar soni ham jadallik bilan ortib bormoqda. 4.3-rasmda keltirilgan

ma'lumotlarni tahlil qilib ko'rishimiz mumkin 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimiz hududida jami yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 238 188 tani tashkil etib, bu 2022-yil 1-yanvar holatiga qaraganda (217 646) 9.4 foizga ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar dinamikasini sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra hunarmandchilik sohasidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 19.3 foizlik o'sish bilan sohalar ichida yetakchilik qilgan. Bundan tashqari chakana savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, va boshqa sohalarda ham o'sish sur'atlari kuzatilib eng past ko'rsatgich sifatida boshqa sohalar kesimidagi yakka tartibdagi tadbirkorlar sonini keltirishimiz mumkin. Undan tashqari yakka tartibdagi tadbirkorlar soni mamlakatimiz hudidiy kesimida ham ijobjiy sur'atlarda o'sgan. Bu borada 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 29 152 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar soni bilan Toshkent shahri kutilganidek yetakchi bo'lsa, Samarqand viloyati ham yaqin 28 618 nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar soni bilan ikkinchi o'rinni egallagan. Mamlakatimiz hudidiy kesimida eng past o'sish sur'ati 6408 nafa yakka tartibdagi tadbirkorlar soni bilan Sirdaryo viloyatiga to'g'ri kelgan. Bu o'zgarishlarning ijobjiy tarafga qarab o'sishi soliq tizimidagi ishlar samarasi sifatida qaraladi. Bu o'zgarishlar albatta davlat byudjeti daromadlarining o'sishiga va byudjetga soliq to'lovchilar soning oshishiga sabab bo'ladi.

Munozara. Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq ma'murchiligin samarali tashkil etish quyidagi ishlarni amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz:

1. Soliq boshqaruvida ilg'or xalqaro tajribalarini keng joriy qilish. Soliq ma'muriyatichiligin ilg'or xalqaro tajribalarini keng joriy etish O'zbekiston soliq tizimi samaradorligini oshirish va

iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun zarur qadamdir.

2. Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish. Soliq ma'muriyatichiligin ilg'or tajribasining muhim jihatni kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishdir. Singapur, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, soliq xodimlarini muvaffaqiyatli tayyorlashga xizmat qiluvchi aniq uslub va strategiyalarni aniqlash mumkin.

3. Qonunchilikni takomillashtirish. Soliq ma'muriyatichiligi samaradorligini oshirishda qonunchilikni takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Masalan, Qo'shma Shtatlarda tartiblarni soddalashtirish va tizimning shaffofligini oshirish maqsadida soliq qonunchiligiga muntazam ravishda o'zgartirishlar kiritiladi. Masalan, 2017-yilda "Soliqlarni qisqartirish va ish o'rinnari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, bu esa korporatsiyalar va jismoniy shaxslarning soliq yukini sezilarli darajada kamaytirdi. AQSh Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu islohot natijasida korxonalar uchun o'rtacha soliq stavkasi 35 foizdan 21 foizgacha pasaygan va bu investitsiyalar oqimiga hissa qo'shgan va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirgan [7].

4. Soliq majburiyatlarini bajarish uchun rag'batlantirishni yaratish. Soliq qonunchiligiga rioya qilishni yaxshilash uchun soliq to'lovchilarini soliqlarni to'g'ri to'lashga undaydigan samarali rag'batlantirish vositalarini yaratish zarur. O'zbekistonda ham xuddi shunday vositalardan foydalanish soliqqa rioya qilish darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Masalan, ayrim toifadagi korxonalar yoki investitsiya loyihalari uchun soliq imtiyozlari dasturlarini joriy etish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va mamlakatga investitsiyalarni jalb qilishi mumkin. Bundan tashqari, soliq organlari tomonidan nazorat va auditning kuchaytirilishi soliq

qonunchilagini buzish darajasini pasaytirish va soliq tizimiga ishonchni oshirish imkonini beradi.

5. Axborot texnologiyalarini rivojlantirish. Axborot texnologiyalari yutuqlari zamonaviy soliq ma'muriyatichilida muhim o'rinn tutib, ma'lumotlarni yanada samarali yig'ish, qayta ishslash va tahlil qilish, shuningdek, soliq to'lovchilar uchun shaffoflik va qulaylikni oshirish imkonini bermoqda.

6. Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash. Soliq ma'muriyatichiligi sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash soliq to'lashdan bo'yin tovplashga qarshi kurashish, ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish va soliq tizimining adolatliliginini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro soliq hamkorligining bunday mexanizmlaridan foydalanish O'zbekiston soliq tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, xalqaro soliq standartlari va davlatlararo axborot almashinushi bo'yicha kelishuvlarga qo'shilish O'zbekistonga soliq oqimlari ustidan nazoratni kuchaytirish va soliq to'lashdan bo'yin tovplash natijasida tushum yo'qotishlarining oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari, soliq ma'muriyatichiligi sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tajriba va ilg'or tajriba almashishga ko'maklashishi mumkin, bu esa soliq organlarining kasbiy darajasini oshirishga va soliq to'lovchilarga soliq xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq ma'muriyatichilagini samarali tashkil etish mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jarayonlarni avtomatlashtirish, qonunchilikni takomillashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish kabi ilg'or tajribalardan foydalanish soliq tushumlarini oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovplashni kamaytirish va soliq adolatliliginini

ta'minlashga xizmat qilmoqda. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq ma'muriyatichilagini muvaffaqiyatli tashkil etish nafaqat qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish va yangi texnologiyalarni joriy etish, balki kadrlar malakasini oshirish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish va aholini o'qitishni ham o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Ushbu maqolani yozish jarayonida quyidagi xulosalarga ega bo'ldik:

- Soliq ma'muriyatichilagini samarali tashkil etishni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim omili soliq qonunchilagini takomillashtirishdir. Shaffof va sodda soliq qoidalari soliq tavakkalchilagini kamaytirish va soliq to'lovchining ishonchini oshirishga yordam beradi.
- Soliq ma'muriyatichilagini samarali tashkil etishning muhim elementi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish hisoblanadi. Tayyorlangan mutaxassislar ilg'or uslub va texnologiyalarni samarali qo'llay oladi.
- Soliq ma'muriyatichiligi tizimini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish muhim o'rinn tutadi. Axborotni yig'ish va qayta ishslash jarayonlarini avtomatlashtirish vaqt xarajatlarini kamaytiradi va xatolar ehtimolini kamaytiradi.
- Soliq to'lashdan bo'yin tovplash va ikki tomonlama soliqqa tortishga qarshi samarali kurashish xalqaro soliq hamkorligini kuchaytirishni taqozo etadi. O'zbekiston soliq ma'muriyatichiligi bo'yicha xalqaro tashabbus va tashkilotlarda faol ishtirok etishi kerak.
- Rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni O'zbekistonda qo'llashni davom ettirish muhimdir. Bu soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniqroq va



moslashtirilgan tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Yuqoridagi xulosalar O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishi va barqaror rivojlanishiga erishish uchun hududlar soliq

salohiyatini oshirishda soliq ma’murchilagini samarali tashkil etishda turli yangi usullarni qo’llash, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va qo’llash muhimligini ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Анисимов А.Л. Эффективность налогового администрирования в налоговой системе Российской Федерации //Известия Уральского государственного экономического университета. – 2015. – №. 1 (57).
2. Новоселов К.В. Перспективы развития риск-менеджмента в налоговой сфере //Экономика. Налоги. Право. – 2017. – №. 6. – С. 29-38.
3. Мишустин М.В. Совершенствование инструментов налогового администрирования по обеспечению стабильных доходов государственного бюджета //Экономика. Налоги. Право. – 2014. – №. 4
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-sonli Farmoni
5. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti
6. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
7. Александрова Н. В. Повышение эффективности и качества налогового администрирования в регионе // Инновационное развитие экономики. — 2017. — № 2(38). — С. 157–162.